

**O'ZGALAR PARVARISHIGA MUHTOJ BO'LGAN YOLG'IZ KEKSALAR VA
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARGA IJTIMOIY XIZMAT VA YORDAM
KO'RSATISH**

Ilmiy rahbar: Sherov Ma'ruf Boltaevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti dotsenti

Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna

Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xidirova Mohigul Tolib Qizi

Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatish, ularga yordam ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlari. O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishlarida ijtimoiy xodimlarning o'rni va roli.

Kalit so'zlar: Keksa, g'amxo'rlik, parvarish, nogironligi bor shaxs, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy yordam, e'tibor, inson, "Sahovat", "Muruvvat".

Keksa avlod vakillari hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishlarini ta'minlash, boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2023-yil 27-dekabr PQ 410-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish chora tadbirlari" to'g'risida qonunida keksa avlod vakillari ularning yashash sharoiti, turmush darajasi yaxshilanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yarashitish bo'yicha yangi usullar keltirilgan.

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar bilan bog'liq holatlardagi asosiy muammo ular haqidagi anniq ma'lumotlarning yo'qligidir. Bugungi kunda yurtimizda bu kabi keksalar soni 18 ming 417nafarga yetgan. Ularni asosan yolg'izlik, salomatlik va xavfsizlik masalalari, harakatlanish cheklanganligi, kundalik uy ishlarini bajarishda qiyinchilik, noto'g'ri ovqatlanish, xotira susayishi, firibgarlik va suistimollarga qarshi zaiflik, o'z-o'zini parvarish qilaolmaslik va ijtimoiy xodimlar tomonidan parvarishlash grafigining noto'g'ri shakllantirilishi kabi muammolar qiyinab keladi.

Yolg'iz yashovchi keksalar bu – yolg'iz yashaydigan yoki keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan pensiya yoshidagi shaxslar (60 yoshga yetgan erkaklar, 55 yoshga yetgan ayollar) hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslardir.

2024-yil 1-martdan boshlab:

*xar oyda bir marotaba ijtimoiy xodim assistentlarining faoliyati yolg'iz keksalarning o'zлari , mahalladagi ijtimoiy xodimlar va maxsus dastur tomonidan baxolanadi hamda baholash natijalaridan kelib chiqib ``Inson`` ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy xodim assistentlarini rag'batlantiradi.

*bunda, ijtimoiy xodim assistentlarining xodimlari moddiy rag'batlantirish maxsus fondi mehnat xaqqi fondining 50 foiziga yetkaziladi.

*xar 6 oyda bir marotaba ijtimoiy xizmatlar sifati hamda individual ijtimoiy xizmatlar rejasи natijalari``Inson`` markazi xodimi, ijtimoiy xodim, tuman tibbiyat birlashmasining maxsus monitoring guruhi vakili hamda fuqarolar yig'ini raisi tomonidan monitoringdan o'tkaziladi.

`` O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida``gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19- martdagi PF 3864-son ``Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora- tadbirlari to'g'risida``gi farmoni e'lon qilindi.O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi nizom qabul qilindi. Unda keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati, mehribonlik qilish joriy etilgan. Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tarkibiy tuzulmasi tomonidan muhofazalanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

*fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda uyida o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz fuqarolarni aniqlash va hisobini yuritish;

*yolg'iz fuqarolarga homiylik yordamlarini ko'rsatish maqsadida ularning ilgari ishlagan mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan aloqalarini olib borish;

*internet uylariga joylashtirish uchun ko'maklashish ;

*yolg'iz fuqarolarga bevosita ijtimoiy xodimlar tomonidan quyidagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish:

1. Zarur oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va dori-darmonlarni uygа yetkazib berish;

2. Uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarni yuvish, kimyoviy tozalashga topshirish, ta'mirlash va ularni yetkazib berish;

3. Zarur tibbiy yordam ko'rsatish ishlarida, uy-joyni tozalashda, xonodon ichidagi santexnik jihozlarni ta'mirlashda ko'maklashish;

4. Qarindosh va do'stlar bilan yozishmalar olib borish bilan bog'liq iltimoslar va boshqa turdagи bir martalik topshiriqlarni bajarish'

Yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish ishlari bo'yicha har haftalik monitoring olib boradi va ijtimoiy xodimlarining xizmat ko'rsatish faoliyatiga baho beradi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish ishlari bo'yicha har chorak yakunida tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ma'lumot taqdim etib boradi.

“ Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'risida“gi Prezident farmoni qabul qilindi.Farmonga ko'ra, 2022-yil 1-martdan: uy-joy communal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha imtiyozlar o'rniga oylik kompensatsiya pul to'lovlari, uni olish huquqiga ega bo'lgan barcha imtiyozli toifadagi shaxslarga, ushbu shaxslarning pensiya olishi yoki olmasligi hamda mehnat faoliyatini olib borishi yoki olib bormasligidan qat'i nazar to'lab boriladi. Ijtimoiy nafaqa oluvchi o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz shaxslarga kompensatsiya to'lovi joriy etiladi.

“Inson“ ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan “Yagona milliy ijtimoiy himoya“ axborat tizimida o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning reystri yuritiladi. Markaz shuningdek o'zgalarning parvarishiga muhtojlik darajasini baholaydi, individual tartibdagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish rejasini tuzadi. Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning yo'qotilgan biometrik pasportlari “Inson“ ijtimoiy xizmatlar markazi buyurtmasi asosida davlat boji undirilmagan holda almashtirib beriladi.

2024-yil 1-fevraldan boshlab reyestrga kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi tuzildi va imkoniyatlar yaratildi.

2024-yil 1-martdan boshlab yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xodimlar assistentlarining “soatbay“ asosda haftaning barcha kunlari xizmat ko'rsatishi uchun moslashuvchan ish tartibi joriy etiladi.

Vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini taqsimlash va uning taqdirini hal etishga qaratilgan boshqa bitimlar notarial tasdiqlashdan avval “Inson“ ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan kelishiladi.

2024-yil 1-apreldan boshlab “Inson“ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda shartnomalar asosida pullik xizmat ko'rsatish tartibi joriy etiladi va o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar va nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam choralar ko'rsatiladi. Reystrga kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan va ularni kuzatuvchi shaxsga bir yilda bir marotaba temir yo'l yoki shaharlارaro avtobus uchun bepul chiptalar ajratiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nogironligi bo'lgan shaxslar, e'tiborga muhtoj bolalar va keksalarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlashga doir qaror imzoladi. Qarorga ko'ra, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar og'ir hayotiy vaziyat va favqulodda hodisalar haqida xabar berishning innovatsion loyihasi amaliyotga joriy etiladi. Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlari uchun zarur bo'lgan turli xil texnik vositalarni bilan ta'minlanishi aniqlandi.

Tuman va shaharlardagi “Inson“ ijtimoiy markazlari tomonidan o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashayotgan hamda keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordamlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtiriladi. “Inson“

ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan muhtoj shaxslarga protez ortopediya moslamalari va realibilitasiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash xizmatlari ko'rsatiladi. Shuning uchun, pansionat va sanatoriyalarda davolanish uchun keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylariga yo'llanmalar beriladi.

Yurtimizda "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash", "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida``gi farmoni ham yurtimizda istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga har tomonlama ko'mak berish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Keng qamrov va tarixiy ahamiyatga ega mazkur huquqiy hujjatlar tufayli tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

"Sahovat" va "Muruvvat" uylari faoliyatida yangi xizmat turlarini joriy etish orqali vasiylikka olinganlarni sog'lomlashtirish va realibilitasiya qilish ishlari yanada yaxshilanadi. Tibbiy-ijtimoiy muassasalar, shu jumladan, "Saxovat" va "Muruvvat" internet uylarida keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi hamda mutaxasislar tayyorlash, muhtoj shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash ishlari takomillashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-oktabrdagi "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijjymoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida``gi 539-son qarori qabul qilindi.Unda belgilanishicha:

*o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bir yilda kamida bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi;

*ijtimoiy xodimlarga fuqarolardan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash bo'yicha arizalarni qabul qilish vakolati beriladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab I guruh nogironligi bo'lgan shaxsga yoki 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolaga, shuningdek, davolash muassasasining xulosasiga ko'ra o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turishning haqiqiy holatlari ijtimoiy xodimlar tomonidan bir yilda bir marotaba o'rganiladi. Bunda tahlil qilish ma'lumotlari "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborat tizimida aks ettirib boriladi.

2024-2025-o'quv yilidan boshlab Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan o'tkaziladigan "Eng faol ijtimoiy xodim" ko'rik tanlovining hududiy bosqichida g'olib bo'lgan ijtimoiy xodimlar davlat oliy ta'lim muassasalariga "ijtimoiy ish" mutaxassisligi bo'yicha to'lov-kontrak asosida o'qishga qabul qilinadi.

2024-yil 1-iyuldan boshlab moddiy yordam va boshqa ijtimoiy xizmatlarni hisobga olishning yagona tizimi ishga tushiriladi. Har bir fuqaro uchun ijtimoiy to'lovlari va imtiyozlar, shu jumladan, subsidiyalar, xizmatlar va yordamlar "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATda ro'yxatga olinadi. Ularga tegishli yordam choralarini ko'rildi. Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, rehabilitatsiya texnik vositalari, shaxsiy gigiyena vositalari bilan taminlashga katta e'tibor qaratiladi. Bu toifadagi insonlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar muntazan takomillashtirib boradi. Ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar, konserst dasturlarini tashkil etish orqali keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlanadi. Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning yurtimizdagi diqqatga sazozor joylar va ziyyaratgohlarga sayohati tashkil etiladi.

Alovida ro'yxatga olingen, o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz istiqomat qiluvchi pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslar holidan doimiy xabar olish tizimi yanada kuchaytirilgan. Ularning hayotini mazmunli tashkil etish borasida ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lami kengaytiriladi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga uyida ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlar yanada takomillashtiriladi. Bu kabi ezgu amallarni, xayrli ishlarni bajarishga hamkor tashkilotlar hamda saxovatpesha hamyurtlarimiz ham munosib hissa qo'shishadi. Barchamiz yagona maqsad atrofida birlashib ishlaymiz. Bu ezgu amal ayni paytda yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga uyg'un tarzda xalqimizning bugunidan rozi, ertasidan xotirjam bo'lib yashashiga zamin yaratadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish joizki nogironlikk va keksalik nafaqat shaxsning, balki butun davlat va jamiyatning muammosidir. Fuqarolarning ushbu toifasi nafaqat ijtimoiy himoyaga, balki atrofdagilar tomonidan o'z muammolarini tushunishga juda muhtoj, bu oddiy achinish emas, balki insoniy hamdardlik va ularga vatandoshlar sifatida teng munosabatda bo'lishda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga har yili katta e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Prezident qarorlari
- 2.Dementyeva N.F,Ustinova E.V Ijtimoiy ishchilarning nogironlar va keksalarga xizmat ko'rsatishda tutgan o'rni va roli.
- 3.Dmitriev A.V Keksalarning ijtimoiy muammolari
- 4.Lopatin N.M Keksalar va keksa fuqarolarning ijtimoiy himoya qilish